O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 26-martdagi "2024-2025-o'quv yili uchun ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 95-sonli buyrug'i ijrosini amalga oshirish maqsadida Metodik xizmat ko'rsatish bo'limiga manzilli xizmat "Metodik tur" rejasi asosida Pastdarg'om tumanidagi 33-, 38-umumiy o'rta ta'lim maktablari birlashtirildi va ushbu maktablarda quyidagi ishlar amalga oshirildi:



- Matematika, Fizika, Kimyo, Biologiya, ona tili, ingliz tili fani o'qituvchilaridan iborat "Mahoratli ustozlar" telegram guruhlarini tashkil etildi;
- O'qituvchilarining bilimi va kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha ularni attestatsiya jarayoniga jalb qilish choralari ko'rildi hamda 2024-2025-o'quv yilida 11-sinf bitiruvchilaridan tahliliy diagnostik testlar olindi;
- Fanlardan olingan nazorat testlarida sinflar va mavzular kesimida aniqlangan bo'shliqlar bo'yicha biriktirilgan professor-o'qituvchilar va metodistlar tomonidan qo'shimcha mahorat darslar va seminar treninglar tashkil etildi;
- "Marshall Cavendish Education" xalqaro ta'lim tashkiloti tomonidan Singapur tajribasi asosida, "Sun'iy intellekt" dan ta'limda foydalanish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha "Mahorat darslari" va seminar-treninglar tashkil etildi;
- 9-11-sinf o'quvchilaridan kasbiy-psixologik so'rovnoma olish, surovnomalar natijalariga ko'ra OTMga topshiradigan bitiruvchilar ro'yxatini mutaxassislik va yo'nalishlar kesimida shakllantirildi va nomma-nom maktab o'qituvchilariga biriktirildi;
- Oliy ta'lim muassasalariga kirish istagida bo'lgan o'quvchilarga munosib sharoit yaratish maqsadida "Abituriyent shtabi" faoliyatini jonlantirildi, bunda ta'lim yo'nalishlari va fanlar kesimida test savollar bankini yaratildi, o'quvchilarni to'laqonli foydalanishlarini ta'minlandi;
- O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va kasb-hunar o'rganish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qo'shimcha fan va kasb to'garaklari tashkil etildi;
- Chet tili fan o'qituvchilarini xalqaro va milliy sertifikat imtihonlarida qatnashishini ta'minlash choralari ko'ridi.





Maktablardagi yosh, tajribasiz o'qituvchilarga amaliy metodik yordam ko'rsatish hamda darslarning sifatini oshirish maqsadida barcha fan metoistlari tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida viloyat maktablarida 213 soat "Mahorat darslar" tashkil etildi. Ushbu darslar metodistlardan Master-klass sifatida yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlash jarayonlarida turli metodikalar, ped texnologiyalar hamda didaktik o'yinlar yordamida ko'rsatib berildi.



7.3. O'z o'zini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy mahoratni oshirish

2024-yil davomida o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish maqdadida fanlar kesimida tajribali o'qituvchilar tomonidan 46ta video kontentlar yaratildi.



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024 yil 29 maydagi "Xalqaro tajriba asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish hamda o'quvchilarning aniq va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini oshirish to'g'risida"gi 177-sonli buyrug'iga asosan viloyatdan **jami 25 nafar** trenerlar Toshkent shahrida Singapur tajribasi asosida tashkil etilgan o'quv seminarda ishtirok etishdi.



Ushbu trenerlar tomonidan viloyat Pedagogik mahorat markazida **5-10-avgust kunlari** o'tkaziladigan seminarda jami **180 nafar** (50 nafar direktorlar, 50 nafar aniq fan va 80 nafar tabiiy fan o'qituvchilari) pedagoglarning xalqaro ta'lim dasturlari asosida malakasi oshirildi.

Ushbu jarayon **19-24 avgust** kunlari tuman (shahar) lardagi **16 ta** tayanch maktablarida kaskad usulida davom ettirilib, **3816 nafar** pedagoglar master-trenerlar tomonidan o'qitildi.

Singapur tajribasi asosida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari, matematika va tabiiy fan (Science) o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish va mazkur yo'nalishda xalqaro ilg'or tajribalar bilan tanishtirish maqsadida Pedagogik mahorat markazida dastur asosida seminar-treninglarning o'quv jarayonlari o'tkazildi.

Singapur tajribasi asosida 21-24 avgust kunlari kaskad usulida 3-tuman bosqichi seminar – treninglar **tayanch maktablarida** 3 ta yo'nalishda tashkil etildi. Seminarlarda matematika, tabiiy fan hamda direktorlar ishtirok etdi.



Tumanlarda 21-24 avgust kunlari tashkil etilgan seminar-treninglarda, maktablarda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha faoliyat yurituvchi pedagoglarning kaskad usulida malakasini oshirish, maktab direktorlari tomonidan boshqaruv tizimini yaxshilash hamda xalqaro tajribalar asosida tabiiy va matematika fani bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini sun'iy intellektga asoslangan raqamli ta'lim platformasi orqali baholash asosiy maqsad qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-sonli qarori hamda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yaxshilash yuzasidan vazirlikning 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-sonli buyrug'iga asosanb umumiy o'rta ta'lim maktablari tabiiy va aniq fanlari



o'qituvchilari uchun 2024-yil sentabr oyidan boshlab 1-, 3- haftalarida KRK va 2-, 4- haftalarida KRSlari tashkil etildi.

"Kasbiy rivojlanish kuni" doirasida har bitta fan bo'yicha tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalari tanlandi va ushbu muassasalarda o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

"Kasbiy rivojlanish soati" doirasida fan metodika birlashmalari va mentor-o'qituvchilar tomonidan o'qituvchilarning darslari tahlil qilinib, ularga metodik yordam ko'rsatib, kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berildi.

Viloyatda Kasbiy rivojlanish kunini o'tkazish maqsadida aniq fanlar (matematika va informatika) va tabiiy fan (fizika, biologiya, kimyo, geografiya) yo'nalishida jami 17 nafar master-trener, 96 nafar mentor-trener, 2526 nafar yetkachi o'qituvchilari va 10223 nafar fan o'qituvchilari jalb etildi.

Aniq fan (matematika va informatika) yo'nalishida:

45 ta tayanch maktablari, 4 nafar master-trener, 48 nafar mentor-trener, 1263 nafar yetakchi o'qituvchi, 4817 nafar fan o'qituvchilari;

Tabiiy fan (fizika, biologiya, kimyo, geografiya) yo'nalishida:

45 ta tayanch maktablari, 4 nafar master-trener, 48 nafar mentor-trener, 1263 nafar yetakchi o'qituvchi, 5406 nafar fan o'qituvchilari.

Xalqaro ta'lim tashkilotlari trenerlari tomonidan 3 ta xududda 96 nafar mentor-trenerlar o'quvlari tashkil etildi. Jumladan:

Pedagogik mahorat markazida: Samarqand shahar, Toyloq, Urgut, Nurobod. Bulungur, Jomboy, Pastdargom, Samarqand tumanlari mentor-o'qituvchilari;

Kattaqo'rg'on shahar 2-maktabda: Kattaqo'rg'on shahar, Kattaqo'rg'on, Paxtachi va Narpay tumanlari mentor-o'qituvchilari;

Ishtixon tumani 8-maktabda: Ishtixon, Payariq, Qo'shrabot, Oqdaryo tumanlari mentor -o'qituvchilari uchun o'quvlar tashkil qilindi.



Viloyatda Kasbiy rivojlanish kunlari va Kasbiy rivojlanish soatlarini tashkil etishda ishtirokchilarning (yetakchi o'qituvchilarning va fan o'qituvchilarning) davomating nazorati GoogleSheet platformasi orqali tashkil etildi. Mentor va yetakchi



o'qituvchilarning o'tilayotgan mavzular (1-, 2- modullar) bo'yicha taqdimotlar va kerakli materiallar bilan ta'minalab borishda har bir tuman (shahar)ga metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlaridan mas'ullar belgilandi.

Samarqand viloyati "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish va metodik yordam ko'rsatishga mas'ul xodimlar ro'yxati								
T/r	Hudud nomi	Biriktirilgan mas'ullar						
		Boshqarmadan biriktirilgan mas'ul	Telefon raqami	Markadan biriktirilgan mas'ul	Telefon raqami	Tumandan biriktirilgan mas'ul	Telefon raqami	O'tkazish joyi
1	Samarqand shahar	Odilov Nizomiddin	97 613 59 39	Giyasova Shirin	91 559 05 79	Aliyev Aziz	93 825 98 55	
2	Kattaqo'rg'on shahar	Ma'rufep Onif	99 206 12 33	Ismoilov Anvarjon	99 597 61 77	Nurullayeva Mavlyuda	94 995 97 69	2-maktab
3	Bulung'ur tuman	Kamolov Sunnat	91 558 90 01	Ro'ziyev Farhod	94 539 38 47	Ashurov Rustam	99 053 94 89	23-maktab
4	Jomboy tuman	Salimova Gulmira	93 729 16 54	Shanazarova Nigora	90 251 15 17	Ziyaboyev Oybek	93 831 85 85	40-maktab
5	Ishtixon tuman	Yakubov Murodullo	91 528 27 88	Mamatova Sitara	94 288 60 01	O'zbekov Ravshan	94 552 99 54	55-maktab
6	Kattaqo'rg'on tuman	Mamirov Baxtiyor	97 923 63 69	Xushvaqtoev Alomal	93 727 97 07	Turdiyev Samandar	99 595 55 36	96-maktab
7	Narpay tuman	Gozliyev Xarshid	99 351 15 34	Buzanova Rano	91 535 82 80	Urutov Timur	94 180 40 46	17-maktab

8	Qo'shro'bot tuman	Ibragimov Nurali	97 950 30 00	Qodratov Xarshid	99 312 88 13	Shakarov Sherqunzi	97 930 00 86	Tuman bo'limida
9	Oqdaryo tuman	Usmonova Nargiza	93 335 84 71	Niyazov Vali	91 522 24 96	Abdusodikimov Nasran	99 711 42 85	Tuman bo'limida
10	Pastdarg'om tuman	Ko'jamqulov O'ktam	97 916 72 84	Palatova Zulfiya	97 913 02 71	Ergashev Abbas	91 556 38 37	125-maktab
				Mamayusupova Aziza	91 546 38 09			
11	Payariq tuman	Natyarova Elmira	94 285 59 29			Nazarov Fariddin	94 479 79 33	79-maktab
				Norbayeva Gulhayo	93 344 66 76			
12	Pastdarg'om tuman	Norqo'ziyev Bahodir	94 882 43 43	Nomaxmatov Zafar	99 591 49 52	Rustamov Asqar	93 727 79 75	Tuman bo'limida
13	Nurobod tuman	Nazarov Botir	94 549 76 11	Qo'shayev Nurod	99 559 40 743	Nakiev Tolib	94 936 411 66	Tuman bo'limida
14	Samarqand tuman	Maxmayusupova Dildura	99 554 32 08	Zaynaboda Tasmina	99 594 07 43	Djalolov Jo'rabek	98 337 29 99	Tuman bo'limida
15	Toyloq tuman	Ishmusurov Jo'rabek	90 224 24 08	Safarova Dilshoda	99 335 75 42	Djurayev Jamshid	97 613 39 69	Tuman bo'limida
16	Urgut tuman	Sovonov Jamshid	91 556 24 03	Azamatov Susrob	93 279 79 72	Ashurov Adham	90 456 89 97	154-maktab
				Nazriyeva Mastura	97 399 27 20			

2024-yil davomida fan metodistlari kasbiy mahoratini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan seminar-treninglarda, konferensiyalar, onlayn kurslarda, Xalqaro va Milliy sertifikat olish uchun o'tkazilgan test jarayonlarida ishtirok etib, 29 ta turli darajali sertifikatlariga ega bo'lishdi.



"Fan metodist"larining mavjud xalqaro va mahalliy sertifikatlarni bosqichma-bosqich olishlariga erishish hamda fan o'qituvchilariga yordam ko'rsatish.



Markazda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlar integratsiyasiga asoslangan 18 soatlik qisqa muddatli o'quv kursi tashkil etildi.

O'quv kurs davomida ishtirokchilar o'zlarining intellektual qobiliyatlarini aniqlash, xotiralarini takomillashtirishga yo'naltirilgan mnemotexnika usullaridan qo'lanildi. Kurs yakunida ishtirokchilar bilimlari sinovdan o'tkazilib, 14 nafari sertifikat bilan taqdirlandi.



Metodistlar tomonidan barcha fan yo'nalishlarida 8500 ta savollardan iborat testlar banki yaratildi.





7.4. Ta'limdagi tub islohotlar va ilg'or ish tajribalar targ'iboti :

Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi hamda Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda 2024-yilda filologiya fanlari, ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar hamda amaliy fanlar yo'nalishlarida jami 9 ta turli xil ko'rik-tanlov va musobaqalar o'tkazildi.



hududlaridagi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirokida 18 ta o'quv-amaliy seminarlar tashkil qilindi.

“Mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish” bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023- yil 16-avgustdagi 248-sonli buyrug'iga asoslanib, 2024-yilda viloyatning barcha






O'quvchilarni PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishishi uchun amaliy topshiriqlar ustida ishlash va barcha tumanlarda ta'lim uzluksizligini (trening, maqola, tavsiyalar berish) tashkil etilishini nazorat qilish va taklif-mulohazalar kiritish maqsadida metodistlar PMM "Aniq va tabiiy fanlar kafedrası" hamda "Boshlang'ich ta'lim kafedrası" bilan hamkorlikda 2024-yil davomida 16 ta seminar tashkil etildi.



Samarqand viloyatidagi 16 ta tuman (shahar)larda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi "Tajriba sinov maktablari bilan bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi 248-sonli buyrug'iga asosan **"Tanlov fanlari sinflarini tashkil etish"** mavzularida o'quv-amaliy seminarlar tashkil etildi.



2024 yilda barcha tuman (shahar)larida 4K modeli asosida chop etilgan yangi avlod darsliklarini dars jarayonida qo'llay olishni shakllantirish bo'yicha 26 ta webinar va seminarlar tashkil etildi. Seminarlar quyidagi yo'nalishlardan tashkil etildi:





XIII. TASHKIL ETILGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR:

8.1. Tongqi tadbirlar:

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarini ijtimoiylashuv, kreativ, tanqidiy fikrlash, innovatsion, informatsion, psixologik, metodik, badiiy-estetik zavqlanish, texnologik, ekstremal kompetentligini rivojlantirish maqsadida haftaning dushanbadan juma kuniga qadar "Tongqi tadbirlar" loyihasi tashkil etildi.

Kafedra	Tadbir nomi	O'tkazish hafta va vaqti	Tadbirga mas'ul	Izoh
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Mahoratga yo'l"	Seshanba 08:00	M.Rahimqulova G.Ergasheva T.Tolipova J.Shodiyeva M.Nigmatova D.Nurmanova U.Suvonqulov X.Ravshanova	18 ta
Ijtimoiy v 99a amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "O'zingni namoyon et"	Chorshanba 08:00	M.Rasulova K.Suvanova	19 ta
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Tongni tarovat"	Payshanba 8:00	G.Fayzullayeva, K.Oqilova, N.Shukurova, S.Julmatova	19 ta
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Biz kelajak yaratamiz"	Juma 08:00	A.Qudratova R.Sanayeva N.Yunusova	18 ta
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Shukronalik maktabi"	Shanba 08:00	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası barcha o'qituvchilar	10 ta



8.2. Davra suhbatlari va bayram sanalari bilan bog'liq tadbirlar:

14-yanvar kuni O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va 14-yanvar - Vatan himoiyachilari kuni munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Markazda taniqli navoiyshunos va manbashunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi a'zosi — akademik, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Pedagogika markazi direktori professor A.Ibragimov ustozning ilmiy faoliyatini e'tirof etib, 2023-yil 23-dekabrda Sh.Sirojiddinovni O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlangani va akademik unvoni berilganligi bilan samimiy qutladi.




19-yanvar kuni Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazida ma'rifatparvar, jadidchilik harakatining yetuk vakili, yozuvchi, o'zbek dramaturgiyasining asoschisi, noshir, jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy tavallud kuni munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi. Dastlab, Pedagogika markazi professor-o'qituvchilari va Behbudiy avlodlari hamda jamoatchilik vakillari tomonidan Behbudiy haykali poyiga gullar qo'yildi. "Behbudiy va Samarqand ma'rifatparvarligi" haqida adib Nusrat Rahmat va "Mahmudxo'ja Behbudiy maktablari va darsliklari xususida ayrim mulohazalar" to'g'risida professor M.Tursunovalar ma'ruza qilishdi. Ona tili va adabiyot fani yo'nalishi tinglovchilari tomonidan "Padarkush" dramasi namoyish etildi.



30-yanvar kuni Pedagogika markazi Aniq va tabiiy fanlar meodikasi kafedasi biologiya guruhida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tavalludining 86 yilligi munosabati bilan davra suhbatini o'tkazildi. Davra suhbatida biologiya guruh tinglovchilari O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mustaqillikkacha va mustaqillik davrida amalga oshirgan samarali va istiqbolli mehnatlari to'g'risida fikrlar bildirishdi. Guruh tinglovchilariga I.A.Karimov hayoti haqida videorolik qo'yib berildi.



7-fevral kuni Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi ingliz tili o'qituvchilari guruhi tinglovchilari bilan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlab "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. 4 ta guruh ishtirok etgan ushbu tadbirida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ingliz tilida qimmatli ma'lumotlar berildi, savol-javoblar va 3 ta shart bo'yicha guruhlar o'zaro bellashdilar.



8-fevral kuni D.Rabbonayeva, D.Jurayeva va 1, 5-guruh tinglovchilari tomonidan “Barhayot siymo” mavzusidagi ma’naviy tadbir tashkil etdi.

9-fevral kuni X.Ravshanova U.Suvonqulovlar va ARM tomonidan Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari yo’nalishi tinglovchilari bilan Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligiga bag’ishlab “Barhayot Navoiy” davra suhbatini tashkil etildi.

15-fevral kuni D.Rabbonayeva va D.Jurayevalar Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-, 5 -guruh tinglovchilari bilan “Boburning buyuk siymosi” mavzusidagi tadbir tashkil etdi.

15-fevral kuni viloyat OITSga qarshi kurash markazi mutaxassislari M.Mamalatipova va G.Yakubovalar bilan davra suhbatini tashkil etildi.

22-fevral kuni Samarqand shahridagi Prezident maktabi direktori v.v.b Nasimjon Mirubaydov bilan davra suhbatini tashkil etildi.

1-mart kuni Kimyo fanining buyuk kashfiyotchisi D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvalining 155 yilligi nishonlandi. Olim tomonidan jadvalning yaratilish tarixi haqida ma’lumotlar berildi.

1-mart kuni Samarqand viloyat hokimligi xotin-qizlar qo‘mitasi hamkorligida Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan “Ilmli ayol – ta’lim taraqqiyotining poydevori” mavzusidagi Respublika Forumini tashkil qilindi.

7-mart kuni Hududiy markazda “8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.



18-mart kuni “Navro‘zi olam” umuxalq bayarmi ko‘tarinki ruhda tashkil etildi.

8-aprel kuni Amir Temur tavalludining 688 yilligi munosabati bilan “Amir Temur faxrimiz, iftixorimiz” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.



18-may kuni Markazda Samarqand tumanidagi 52-umumta'lim maktabi o‘qituvchisi Adiba Boboqulovani ijodiy ishlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu suratlar ko‘rgazmasi markaz dotsenti Kamola Suvonova, tasviriy san‘at metodisti Murodjon Qo‘shayevlar tomonidan tashkil etildi.

“1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”ga bag‘ishlangan “San‘atni anglash san‘ati” tonggi tadbirda rasmlar ko‘rgazmasi va rassomlarni taqdirlash marosimi tashkil qilindi.





8.3. Markaz professor-o'qituvchilari va tinglovchilari uchun tashkil etilgan sayohatlar va madaniy hordiq:

Informatika va axborot texnologiyalari fani guruhi tinglovchilari har hafta Samarqand shahar kasb-hunarga o'qitish markazi faoliyati bilan tanishib, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda yangi zamonaviy asbob-uskunalar, texnik jihozlarni amaliyotda qo'llash jarayoni bilan tajribalarini boyitishdi.



14-yanvar kuni Samarqand shahridagi Pushkin nomidagi axborot-kutubxona markazida taniqli shoir va tarjimon Toshpo'lat O'rxunning "Umr karvoni", "Surur" nomli she'riy kitoblari va "Tong yulduzi bolalari" tarjima asari taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu taqdimotda viloyat Pedagogika markazi professori D.Urinbayeva va axborot xizmati rahbari Sh.Qo'ziyevlar qatnashib, ijodkor faoliyatiga yuksak ijodiy parvozlar tilab, jamoa nomidan tabriklashdi.

25-yanvar kuni U.Suvankulov maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari 4-guruh tinglovchilari bilan Mahmudxo'ja Behbudiyning uy muzeyiga sayohat tashkil etdi.

24-aprel kuni Markazining barcha xodimlar uchun sportning shaxmat, shashka, stol tenisi, nshonga o'q otish, futbol, voleybol turlaridan musobaqalar bo'lib o'tdi, Bu musobaqalarda markazning barcha xodimlari faol qatnashdi.



2-may kuni Pedagogika markaz professor o'qituvchilarining madaniy hordiq chiqarishlari uchun markaz amfiteatrda M.Rasulova, U.Utanov va V.Niyozovlar bilan birgalikda "San'at kechasi" konsert dasturi tashkil etildi.

2-may kuni Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchilari A.Xurramov va F.Mansurovlar o'quv ishlari bo'yicha direktor



o'rinbosarlari guruh tinglovchilari bilan Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyiga sayohat tahkillashtirdilar. Tinglovchilar o'zlari uchun kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



15-may kuni Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchilari G.Ergasheva, J.Shodiyevalar boshlang'ich guruhi tinglovchilari bilan Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyiga borildi.

17-may kuni N.Yunusova va R.Sanayeva kimyo va biologiya fanlari tinglovchilari, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Biokimyo instituti bilan tuzilgan memorandum doirasida sayohat tashkil etishdi.



24-may kuni N.Yunusova va D.Ibodullayevalar biologiya fani tinglovchilari bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Biokimyo institutiga sayohat tashkil etishdi.



27-may kuni Pedagogika markazi katta o'qituvchisi D.Rabbonayeva tashabbusi bilan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tinglovchilari A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markaziga tashrif buyurishdi.

Kutubxona bosh mutaxassisi F.Azamatova tinglovchilarni kutubxona tarixi, faoliyati bilan yaqindan tanishtirdi.



6-iyun kuni markaz o'qituvchilari N.Yunusova, D.Ibodullayeva va R.Sanayevalar kimyo va biologiya fanlari tinglovchilari bilan Sharof Rashidov



nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Biokimyo instituti o'rtasida tuzilgan memorandum doirasida sayohat tashkil etishdi.



8.4. Tinglovchilar bilan yotoqxonada va sport zalida o'tkazilgan tadbirlar:

Yil davomida Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri M.Raximqulova, o'qituvchi D.Nurmanova va Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi M.Rasulovlar tomonidan markaz yotoqxonasida tinglovchilar uchun 51 marta "Relax time" nomli dam olish davra suhbatlari tashkil etildi.



8-fevral kuni Pedagogika psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri G.Fayzullayeva va kafedra o'qituvchilari tomonidan tinglovchilar turar joyida "Hayotdan mamnunlik his etaylik!" psixologik trening davra suhbatlari bo'lib o'tdi.



16-fevral kuni "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalar" kafedrasi dotsenti Utkir Utanov tinglovchilar turar joyida "Ta'limda pozitivlikning ahamiyati" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbiri tashkil etdi.

24 aprel kuni Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi I.Raimkulova, D.Yunisova, N.Ruziyevalar bilan davra suhbatlari o'tkazildi.



16-may kuni Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida tinglovchilar turar joyida tinglovchi xotin-qizlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.



25-may kuni Markazining tinglovchilar turar joyidagi xotin-qizlarning holidan xabar olish maqsadida xotin-qizlar bo'yicha mas'ul M.Yakubjanova, katta o'qituvchi D.Yunusovalar tinglovchilarga markazdagi ichki tartib-intizom hamda yaratilgan shart-sharoitlar, ozodalikka rioya etishlari lozimligi davra suhbatini tashkil qildilar.



IX. MAHALLIY VA XORIJIY TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK:

Hududiy markazda tomonidan hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan 29 ta va xorijiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan 4 ta hamkorlik shartnomalari qilinib konferensiya va seminarlar tashkil etildi.

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1.	Samarqand shahridagi kasb-hunarga o'qitish markazi (Koica)	2024-yil
2	Samarqand davlat universiteti Biologiya fakulteti	2024-yil
3	Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti	2024-yil
4	Samarqand shahar 14-maktab	2024-yil
5	Samarqand shahar 43-IDUM	2024-yil
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi	2024-yil
2	Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali	2024-yil
3	Samarqand shahar 19-umumta'lim maktabi	2024-yil
4	BILIG-ilmiy faoliyat	2024-yil
5	Farg'ona, Toshkent, Jizzax viloyatlari PYMO'MMlari	2024-yil
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkaz	2024-yil
2	Samarqand tumani Mirishkor MFY	2024-yil
3	Qashqadaryo viloyati PYMO'MMlari	2024-yil
4	Sirdaryo viloyati PYMO'MMlari	2024-yil
5	O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Davlat FELD'YEGERLIK xizmati Samarqand shahar bo'limi	2024-yil



Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi	2023-2025 yillar
2	Jizzax davlat pedagogika universiteti	2023-2025 yillar
3	Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti	2023-2025 yillar
4	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti	2023-2025 yillar
<i>Xorijiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Kuzbas davlat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi	2022-2024 yillar
2	Qozon federal universiteti Psixologiya va ta'lim instituti	2023-2024 yillar
3	Indian Innstitute of Technology Bombay, India	2024-2026 yillar
4	Центр дополнительного образования республики Азербайджон	2024-2026 yillar
Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi	2024-yil
2	Samarqand shahar 33-maktab	2024-yil
3	Samarqand shahar 14-maktab	2024-yil
4	Samarqand shaharidagi Prezident maktabi	2024-2026 yillar
5	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti	2024-2026 yillar
6	ISFT instituti Samarqand filiali	2024-2026 yillar

Axborot-resurs markazi <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat Axborot-kutubxona markazi	2022-2024
2	Samarqand viloyat bolalar kutubxonasi	2022-2024

9.1. Mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan amalga oshirilgan hamkorlik:

15-fevral kuni viloyat OITSga qarshi kurash markazi mutaxassisleri M.Mamalatipova va G.Yakubovalar bilan hamkorlikda “OITS - umr zavoli” mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Davra suhbat davomida “OIV, OITS kasalligi haqida umumiy tushunchalar, epidemiologiyasi, yuqish yo‘llari, kasallikni oldini olish, yuqmaslik sharoitlari, OIVga o‘z vaqtida tekshiruvdan o‘tishning ahamiyati, tekshiruv turlari va tartibi” mavzularida ma’ruza qilishdi. Xalq orasida stigma va diskriminasiyani oldini olish bo‘yicha interaktiv suhbat jarayonida 300 dona axborot tarqatma materiallari tarqatildi.



22-fevral kuni markazda Samarqand shahridagi Prezident maktabi direktori v.v.b Nasimjon Mirubaydov bilan davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Yosh avlodni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tarbiyalashda ularga yaratib berilgan shart-sharoitlar haqidagi Prezident maktabi faoliyati bilan yaqindan tanishtiradigan videorolik namoyish qilindi. Qiziqarli tarzda o‘tgan

samimiy davra suhbatida tinglovchilar tomonidan berilgan savollarga javoblar berildi.

1-mart kuni Samarqand viloyati hokimligi xotin-qizlar qo‘mitasi va Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi hamkorligida Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan “Ilmli ayol – ta’lim taraqqiyotining poydevori” mavzusidagi Respublika Forumi tashkil etildi. Mazkur tadbirda markazning xotin- qiz professor – o‘qituvchilari faol qatnashishdi.



29-mart kuni Nova o'quv va nova shaxsiy rivojlanish akademiyasi rahbari psixolog poligrafolog Firdavs Abduraxmonov bilan davra suhbatı tashkil etildi.



7-iyun kuni Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Sohibnazar Boymurodov va mas'ullar ishtirokida "Yoshlarga radikal oqimlar diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi" mavzusida targ'ibot va tashviqot tadbiri bo'lib o'tdi.



12-iyun kuni Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Sohibnazar Boymurodov va mas'ullar ishtirokida "Yoshlarga radikal oqimlar diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi" mavzusida targ'ibot va tashviqot tadbiri bo'lib o'tdi.



20-noyabr kuni Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari D.Ismoilov bilan hududiy markaz professor-o'qituvchilari va tinglovchilar ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi



9.2. Mahalliy va xorijiy OTM, ITIlar bilan hamkorlik:

Markazda T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik X.I.Ibraimov bilan "Birinci va ikkinchi Renessans davrida Markaziy Osiyo olimlarining ilm-fan sohasidagi yutuqlari" mavzusida uchrashuv va mahorat darsi o'tkazildi. Barkamol shaxsni tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bolib, ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, usullari va qonun-qoidalari haqida ustoz uchrashuvda hayotiy misollar bilan gapirib berdi. Uchrashuvda Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini professor-o'qituvchilari va matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya fanlari tinglovchilari qatnashdi.





3-fevral kuni markazda Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchilari hamkorlikda Seul Milliy Universiteti ijtimoiy hissa guruhi maslahatchi a'zosi Ji Eun Kim bilan mahorat darsi tashkil etildi. Pedagogika markazi direktori professor A.Ibragimov va mas'ullar ishtirokida samimiy suhbat jarayonida ta'lim sifatini oshirish, xorijiy

zamonaviy metodlar haqida tajriba almashish bo'yicha hamkorlik qilishga kelishib olindi. Trener Ji Eun Kim bilan seminar va mahorat darsi tashkil qilindi. Mahorat darsida Koreyalik trener tinglovchilarga Koreyada ta'lim tizimi, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni haqida qiziqarli ma'lumotlar berdi.

7-fevral kuni Samarqand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori Narziqu Shodiyevning "80 yosh saodati yoxud ilmga fido umr" monografiyasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari haqida ustoz uchrashuvda hayotiy misollar bilan gapirib berdi.



8-fevral kuni markazda "Rus tilining chet tili sifatida yangi darsligi: usullari, natijalari" uslubiy seminari bo'lib o'tdi. "Chet elda rus o'qituvchisi" xalqaro loyihasi ishtirokchilari D.V.Averyanova, E.B.Savina, N.G.Semushina, E.X.Ishmuhammedova, D.N.Renchin-Nemaev, I.G.Krinitzin va Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası a'zolari markazda Rossiya va o'zbek pedagoglarining birgalikdagi faoliyati yakunlari bo'yicha mahorat darslarini o'tdi.



19-fevral kuni Pedagogika markazining Fransuz tili o'qituvchilari Fransiya elchixonasi qoshidagi "Samarqand fransuz alyans" markazida fransiyalik mutaxassis Kari Desservettaz tomonidan tashkil qilingan "Club de discussion" seminar-treningda ishtirok etdi.



21-fevral kuni Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası o'qituvchilari hamkorlikda Shimoliy-Kavkaz federal universiteti Matematika va kompyuter texnologiyalari fakulteti dekani, professor T.A.Grabova va fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent N.I.Chervyakova "Samarqandda matematika haftaligi" doirasida tashkil etilgan olimpiadalarni tashkilotchilari bugun markazda "Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt" mavzusida seminar-trening o'tkazdi. Pedagogika markazi direktori professor A.Ibragimov va mas'ullar ishtirokidagi suhbatda xorijiy hamkorlik va ta'lim sifatini oshirishda xorijiy zamonaviy metodlardan, tajriba almashishdan minnatdorligini izhor qildi.

13-mart kuni Pedagogika markazining Fransuz tili o'qituvchilari Fransiya elchixonasi qoshidagi "Samarqand fransuz alyans" markazida fransiyalik mutaxassis Kari Desservettaz tomonidan tashkil qilingan "Club de discussion" seminar-treningda ishtirok etdi.



23-aprel kuni N.I.Lobachyov nomidagi Nijegorod davlat universiteti dotsenti, biologiya fanlar nomzodi Yuliya Sinitsina, markazning katta o'qituvchisi Navbahor Yunusova va Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi biologiya fani metodisti Tahmina Zaynizodalar bilan hamkorlikda biologiya guruhi tinglovchilariga "Hujayrada osmos hodisasini kuzatish (Plazmoliz va deplazmoliz)" va "Amilazaning faolligi" mavzusida mahorat darslarini o'tkazdi.



15-may kuni Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi Davlat maorif universitetining tashqi aloqalar bo'yicha prorektori Xaladov Xojaxmad Sultanovich boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Pedagogika fanlari doktori, professor A.Buchek hamda pedagogika fanlari doktori, dotsent M.Misherina ishtirokida rus tilini o'qitishning dolzarb masalalari, pedagogik kompetensiya, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, Pisa - 2025ga tayyorgarlik bo'yicha seminar o'tkazildi.

17-may kuni Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Samarqand filiali o'rtasida tuzilgan memorandum doirasida seminar tashkil qilindi. TATU



Samarqand filiali Raqamli texnologiyalari markazi boshlig'i Muhammadsolih Tursunov "Zamonaviy axborot texnologiyalarining hayotimizdagi o'rni" mavzusida hamda Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'limi boshlig'i Javohir Bahodirov "Axborot xavfsizligini ta'minlash siyosati-davr talabi" mavzusida Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi tinglovchilari bilan mahorat darslarini interfaol tarzda o'tkazdilar.

21-may kuni Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari direktor va o'rinbosarlari, professor-o'qituvchilaridan iborat delegatsiya a'zolari tajriba almashish maqsadida tashrif buyurdi. Delegatsiya ishtirokchilarini Pedagogika markazi direktori o'rinbosari Dilbar Urinbayeva va bir guruh ma'sullar kutib olishdi. Mehmonlar markaz faoliyatini o'rganish maqsadida rus tili fani bo'yicha dars mashg'ulotlarini kuzatishdi va tahlil qilishdi.



3-iyun kuni Samarqand xalqaro texnologiya universiteti professor-o'qituvchilari bilan "Ta'lim sifatini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish" mavzusida uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda SXTU rektori, professor Yu.Abdullayev universitetda shu vaqtga qadar

amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar to'g'risida pedagoglar jamoasiga ma'lumotlar berdi. Bundan tashqari, professorlar Jimbo Claver (Afrika), Muhammad Galisiy (Hindiston), Ron Willey (Amerika) tadbirda qatnashishdi.



15-iyun kuni Samarqand xalqaro texnologiyalar universiteti professori Jimbo H.Clever, Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida matematika fani o'qituvchilari guruhida mahorat darsini o'tdi.





23-sentabr kuni Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi va Samarqand shahridagi Prezident maktabi bilan hamkorlik Memorandumi tuzildi.



26-noyabr kuni Rossiya Davlati Pedagogika universiteti metodisti, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ye.Fedosenko va Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi I.Raimkulova bilan birgalikda "XXI asr ko'nikmalarini (4K) shakllantirish" mavzusida viloyat seminari bo'lib o'tdi. Seminarda "Rossiya o'qituvchisi chet ellarda" xalqaro loyihasi ishtirokchisi Yelena Savina ham ishtirok etdi



28-noyabr kuni Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent V.Ahrorov "Muloqotning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni" mavzusida ma'ruza qildi.







X. MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA MODDIY-TEXNIK BAZANING RIVOJLANGANLIK HOLATI:

10.1. Umumiy ma'lumot: raqam va jadvallarda

Markazda 2024-yilda jami xarajatlar smetasi 883004,0 ming so'mga rejalashtirildi, shundan 1-guruh ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar 688500.0 ming so'm, 2-guruh yagona ijtimoiy to'lov va soliq to'lovlari 170404,0 ming so'm, 4-guruhga jami xarajatlari 24100,0 ming so'm rejalashtirilib, shundan 22000,0 ming so'mi kommunal to'lovlarga, 2100,0 ming so'mi telekommunikatsiya, internet va telefon xizmatlariga xarajatlariga mablag'lar ajratildi.



Byudjetdan tashqari mablag'lar xisobidan yanvar oyi davomida jami 53024.0 ming so'm mablag'lar sarflandi. Markazda 31-yanvar 2024-yil holatiga byudjetdan tashqari mablag'lar qoldig'i 937080.0 ming so'mni tashkil etadi. Hisobxonaga tegishli barcha hisobotlar o'z vaqtida qilinib topshirilib kelinmoqda, xodimlar oylik mehnat haqi va to'lovlari vaqtida berib borildi.



Umumiy ma'lumot: raqam va jadvallarda

Markazda kompyuterlar soni 160 ta, noutbuklar 8 ta bo'lib – jami 168 ta, shulardan o'quv jarayonida qo'llanilayotgan kompyuterlar soni 120 tani tashkil etadi. Kompyuter sinflari soni 6 ta bo'lib, ulardagi kompyuterlar soni 120 ta. Proyektor 31 ta, Flipchart doska 26 ta, Printer 43 ta, Skaner 2 ta, Interaktiv doska 6 tani tashkil etadi.

Barcha kompyuterlar UNLIM 300 (300 mb) tarifidagi optik tolali internet tarmog'iga ulangan.

XI. XO‘JALIK ISHLARI BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR:**11.1. “Yashil makon” loyihasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar:**

6-aprel kuni “Yashil makon” loyihasi bo‘yicha kafedraning yer maydonida “Eng go‘zal gullar” aksiyasi doirasida hududda eng noyob gul ko‘chatlari, daraxt nihollari ekildi.



“Yashil makon” loyihasi asosida kafedra mashg‘ulot xonalariga kirish qismiga “Eng go‘zal gullar” aksiyasi doirasida gullar burchagi tashkil etildi. Kafedra dotsenti M.Raximqulova tashabbusi bilan kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan gullar burchagi tashkil etildi.



Hududda joyalshga gaz taqsimlagich GRP va TPlar texnik nazoratdan o‘tkazilib tegishli tashkilotlarga yuborildi. Markazimizda joylashgan chiqindixonalar o‘z vaqtida tozalanib to‘lov pullari o‘z vaqtida amalga oshirildi. Kommunal xizmati uchun to‘lovlar tegishli tashkilotlarga o‘z vaqtida o‘tkazilib turildi.

Markazimizda 2024-yilda markaz hududini obodonlashtirish yuzasidan reja ishlab chiqildi hamda hududdagi archa daraxtlari to‘liq shakl berildi. Yashil makon dasturi ijrosini bajarish maqsadida markaz hududida 19 tup buta, 18 tup mevali daraxt, 120 kv.m maydonda yashil gazon ekildi.



Joriy yilda markazning A binosi 1-qavati to'liq ta'mirlanib zamonaviy mebel jixozlari va orgtexnika vositalari bilan ta'minlandi.






XII. MARKAZ KASABA UYUSHMASI FAOLYATI:

12.1. Kasaba uyushmasi faoliyati haqida umumiy ma'lumot:

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazining 2023-2025-yillarga mo'ljallagan jamoa shartnomasini qayta ko'rib chiqildi va yangi ishga qabul qilingan xodimlar kasaba uyushmasining boshlang'ich tashkilotiga a'zo qilib borildi.



Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor o'qituvchilari va xodimlariga qulay ish sharoiti yaratilganligi yil davomida o'rganib borildi.



Markaz kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan professor-o'qituvchilar va xodimlar jamoasi bilan "14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan tadbir o'tkazildi.

2024-yil davomida "Direktor kubogi" sport musobaqasi tashkil etildi.



8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Markazning faol xotin-qizlariga sovgʻalar berildi.



Markazning 2 nafar xodimlariga sogʻligini tiklash maqsadida sixatgohlarga yoʻllanma berildi. Markazning 1 nafar xodimi ota-onasining sogʻligini tiklash maqsadida sixatgohlarga yoʻllanma, 6 nafar xodimga moddiy yordam, 4 nafar xodimlar moddiy ragʻbatlantirildi.



Pedagogik mahorat markazi professor-oʻqituvchilari va xodimlar jamoasida “Navroʻz” umumxalq bayrami munosabati bilan tadbirlar oʻtkazildi.





XIII. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMI RAHBAR VA MUTAXASSIS XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM KURSLARIGA JALB ETISH BO'YICHA REJANING

13.1. Malaka oshirish rejasining bajarilish holati:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 28-dekabrda 577-sonli buyrug'iga asosan 2024-yil pedagogika markazida 38735 nafar tinglovchilar malakasini oshirish rejalashtirilgan. Shundan, 37758 nafari bir haftalik 30 va 36 soatlik malaka oshirish kurs tinglovchilari, 977 nafari 144 soatlik maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari.

Ishchi o'quv reja va dasturlar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-dekabrda 70-XDFU-son buyrug'i asosida ishlab chiqildi, 2024-yil 5-yanvardagi Ilmiy metodik kengashning 1-sonli yig'ilishida tasdiqlandi.

2024-yil davomida pedagogika markazida 38 735 nafar tinglovchilarning malakasi oshirildi. Shundan, 37 758 nafari bir haftalik 30 va 36 soatlik malaka oshirish kurs tinglovchilari, 977 nafari 144 soatlik maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari.

Joriy o'quv yili davomida qayta tayyorlash guruhlar soni 9 ta bo'lib, 2 ta Rus tili kasbiy qayta tayyorlov (972 soat), Tarix kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov (1548 soat), Ingliz tili pedagogik (576 soat), Boshlang'ich kasbiy (972 soat), Biologiya kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov (1548), Texnologiya kasbiy qayta tayyorlov (972 soat), Matematika kasbiy va pedagogik (1548 soat), Matematika kasbiy (972 soat) guruhlar tashkil etildi.

2023-yil 28-fevralda tashkil etilgan "Rus tili o'qituvchisi" kasbiy qayta tayyorlash guruhi 972 soatlik kursni yakunlab 16.12.2023 Bitiruv ishi himoyasi bo'lib o'tdi va 27 nafar tinglovchi guruhni bitirdi.

2023-yil 16-dekabrda "Ingliz tili o'qituvchisi" yo'nalishi bo'yicha pedagogik qayta tayyorlash kursi 576 soat boshlanib 25 nafar tinglovchi qabul qilindi 3 ta tinglovchi sababsiz darsga qatnashmaganligi uchun tinglovchilar safidan chiqarildi va 22 ta tinglovchi guruhni tugatdi.

2023-yil 13-martda tashkil qilingan "Tarix o'qituvchisi" yo'nalishi bo'yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursiga 28 nafar tinglovchi qabul qilinib 26 nafar tinglovchi kursni muvafaqiyatli tugatdi, 2 nafar tinglovchi keying guruhlar bilan o'qishni davom ettirish uchun akademik ta'til oldi.

Hozirda 6 ta guruh oqishni davom ettirayabdi. Shundan Matematika , Rus tili, Texnologiya, Boshlang'ich kasbiy qayta tayyorlov guruhlar dars soatlari ham yakunlanib Diplom ishi himoyasiga tavsiya qilindi.



Dars mashg'ulotlari jadvali loyihasini ishlab chiqish haftaning pashanba kuni elektron shaklda markaz professor-o'qituvchilariga yetkazilib, haftaning oxirida keyingi haftaning guruh jurnallari kafedralarga yetkazildi. Haftaning hafta oxirida guruh jurnallari to'liq rasmiylashtirib akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limida qabul qilindi.

